

FRAZEOLGIK MA'NO: KATEGORIAL VA GRAMMATIK MA'NO MUAMMOLARI

ФРАЗЕЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ: ПРОБЛЕМЫ КАТЕГОРИЧЕСКОГО И
ГРАММАТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯPHRASEOLOGICAL MEANING: ISSUES OF CATEGORICAL AND GRAMMATICAL
MEANINGSGaniyeva Shodiya Azizovna¹¹Ganiyeva Shodiya Azizovna

– Qo'qon davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya

Maqolada frazeologik birliklarning leksemalar kabi shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan ichki tuzilishiga ega ekanligi, mazmuniy tuzilish denotativ, konnotativ, pragmatik semalar bilan birgalikda, turkumlik semasini ham o'z ichiga olishi, frazeologizmlarning o'zi mansub bo'lgan guruhga xos sintaktik pozitsiyani egallashi masalalari yoritiladi.

Аннотация

В статье описываются тот факт, что фразеологические единицы, как и лексемы, имеют внутреннюю структуру, состоящую из отношений формы и содержания, что содержательная структура, наряду с денотативными, коннотативными и прагматическими семами, включает в себя и сему части речи, а фразеологические единицы занимают синтаксическую позицию, характерную для группы, к которой они принадлежат.

Abstarct

The article describes the fact that phraseological units, like lexemes, have an internal structure consisting of relations between form and content, that the content structure, together with denotative, connotative and pragmatic semes, contains a seme of any part of speech as well, and phraseological units occupy a syntactic position characteristic to the group which they belong to.

Kalit so'zlar: *izomorflik, nominativ funksiya, kategorial ma'no, turkumlik semasi, signifikativ ma'no, tayanch komponent, adyektiv frazeologizm, sintaktik pozitsiya, distributsiya, transformatsiya.*

Ключевые слова: *изоморфизм, номинативная функция, категориальное значение, сема части речи, сигнификативное значение, опорный компонент, адъективный фразеологизм, синтаксическая позиция, дистрибуция, трансформация.*

Key words: *isomorphism, nominative function, categorical meaning, a seme of a part of speech, significative meaning, supporting component, adjective phraseological unit, syntactic position, distribution, transformation.*

KIRISH

Tilning har bir sath birliklari ma'lum integral belgi asosida umumiylikni hosil qiladi. Shu bilan birga, turli sath birliklari o'rtasida ham o'xshash nuqtalar mavjud bo'ladi. Mazkur o'xshash jihatlar murakkabroq sath birliklarining noma'lum tomonlarini uncha murakkab bo'lmagan va tadqiqotchi uchun ma'lum bo'lgan sath birliklariga qiyoslab o'rganishga qulay imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham har qanday yangi o'rganilayotgan obyekt bilan ilgari o'rganilgan obyektning ichki tuzilishi o'rtasidagi izomorflikni aniqlash asosida noma'lum obyektning tabiatini yoritish katta ahamiyatga ega. Leksemalar va frazeologik birliklar o'rtasida ham shunday yaqin o'xshashliklar mavjud. Bu leksema va frazeologizmning nominativ funksiyasi hamda mazmuniy tuzilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Frazeologik birliklar, ularning semantikasi, lingvomadaniy va kognitiv xususiyatlari, frazeologik birliklar bilan so'zning ko'chma ma'nosi o'rtasidagi munosabatlar hamda idiomalar, somatik frazeologizmlar semantikasining kognitiv aspektlari, *frazeologizmlar va barqaror birliklar*, frazeologizmlarni assotsiativ, kognitiv aspektda tadqiq etish muammolari, frazeologizmlarning shakl va ma'no munosabatlari, frazeologik birliklarning uslubiy xususiyatlari, ularning shakllanishi muammolari tilshunoslikda ilmiy asosini topgan. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida o'tgan asrning 40-yillarida maydonga keldi. Uning rivojida Sh.Balli, Y.D.Polivanov, L.A.Bulaxovskiy, V.V.Vinogradovlarning, turkiyshunoslikda S.K.Kenesbayev, S.N.Muratov kabi tilshunoslarning alohida xizmatlari bor. O'zbek frazeologiyasining nazariy masalalari bo'yicha

dastlab Y.D.Polivanov[1,24], keyinchalik Sh.Rahmatullayev, YA.Pinjasov, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, A.Isayev, A.Rafiyev, M.Sodiqova, Q.Hakimov, Sh.Usmonova, K.Bozorboyev, B.Jo'rayeva, Sh.Abdullayev, Sh.Almamatova, M.Vafoyeva va boshqa tilshunoslarning ayrim monografik asarlari yaratildi [2;3;4;5;6;7;8;9;10;11;12;13;14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, leksema mazmuniy mundarijasining tarkibiy qismlaridan biri kategorial ma'no, turkumlik semasi hisoblanadi, kategorial ma'no frazeologik ma'noning ham tarkibiy qismi sanaladi. Bu ma'no frazeologizmlarning denotativ ma'nosi ustiga qo'yilgan, predmetlik, harakatlik, belgilik singari umumlashgan ma'nolarini o'z ichiga oladi. Kategorial ma'no xuddi leksemalarning ma'lum leksik-grammatik guruhga mansubligini ifodalaganidek, frazeologizmlarning ham muayyan frazeologik-grammatik guruhga mansubligiga ishora qilib turadi. Bu umumiy ma'no va grammatik belgi asosida frazeologizmlarni ot frazeologizmlar, sifat frazeologizmlar, ravish frazeologizmlarga tasniflash mumkin bo'ladi. Ko'rinadiki, kategorial ma'no grammatik va leksik ma'no bilan uzviy bog'liq bo'lgan, ularning orasida turuvchi ma'no sanaladi. Kategorial ma'noni leksema sememasida ham, frazeologizm sememasida ham signifikativ ma'nodan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ana shu signifikativ sema mazkur leksema va frazeologizmlarni ma'lum leksik-grammatik, frazeologik-grammatik sinflarga birlashtirishga tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, fe'l frazeologizmlarda frazeologik birliklarning fe'l komponenti ko'pincha kategorial ma'no ko'rsatkichi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Biroq barcha frazeologik birliklarda ularning grammatik ma'nosiga ishora qilib turuvchi tayanch komponentni aniqlash murakkab. Jumladan, gap qolipidagi frazeologik birliklarda ana shunday holat ko'zga tashlanib turadi: *ko'zidan o't chaqnamoq*, *ko'ylakni ko'p kiyimoq* singari frazeologizmlarda qaysi komponentning tayanch qism ekanligini belgilash juda qiyin bo'lsa-da, bu frazeologik birliklar gap tarkibida muayyan sintaktik pozitsiyada keladi. Shu sintaktik pozitsiya ularning kategorial ma'nosiga tayangan holda yuzaga chiqadi.

Frazeologik birliklarni kategorial ma'noning xarakteriga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin:

- 1) kategorial ma'nosi grammatik tayanch komponentdan sezilib turuvchi;
- 2) kategorial ma'nosi grammatik tayanch komponentdan sezilmaydigan.

Birinchi guruhga fe'l, ot (ism), adyektiv frazeologizmlar mansubdir. Kategorial ma'nosiga ko'ra fe'l frazeologizmlar eng ko'p tarqalgan frazeologik birliklar sanaladi. Jumladan, *oyog'ini qo'lga olib yugurmoq* (tez kelmoq), *ichidan ezilmoq* (qayg'urmoq) va boshqalar. Bunday frazeologizmlarda yetakchi komponent fe'l bo'lgani sababli, frazeologik birlik ma'nosiga fe'lning qanday grammatik shaklda turganligi ma'lum darajada ta'sir qiladi. Xususan, ikkinchi frazeologizm tarkibidagi tayanch komponent o'zlik nisbatidagi fe'l shaklida bo'lganligi tufayli frazeologik birlik ma'nosida ham ana shu o'zlik semasi saqlanib qoladi. Shuningdek, birinchi frazeologizmning umumiy ma'nosi tayanch komponent bo'lgan *yugurmoq* so'zining leksik va grammatik ma'nosi bilan bog'liqdir. Chunki *yugurmoq* leksemasining mazmuniy mundarijasida yurish harakatining tezligi semasi mavjud. Frazeologik birlik qismiga xos ana shu sema butunga ko'chirilgan. Bu frazeologizm tarkibida tobe pozitsiyada turgan *oyog'ini qo'lga olmoq* qismi aslida tayanch qism *yugurmoq* fe'li mazmuniy mundarijasidagi "tez yurmoq" semasiga zid keladi. Biroq tobe qismning komponentlari o'z ma'nolarini yo'qotib, bir butun holda semantik yaxlitlanib, "tez" semasiga ega bo'lishi butun bilan tayanch qism o'rtasida semik uyg'unlikni, semantik moslashuvni hosil qilgan. Natijada tayanch komponent bilan uyg'unlashgan holda bir umumiy ma'no ostiga birlashgan. *Oyog'ini qo'lga olmoq* qismi shakl va mazmun asimmetriyasiga ega bo'lib, antisemiyani hosil qiladi. Buning ma'nosi shuki, shakliy jihatdan *oyog'ini qo'lga olmoq* birikmasi komponentlarining xususiy ma'nolari butunlik ma'nosiga, ya'ni yurish harakatining tezligi ma'nosiga zid keladi. Shu sababli bu ikki komponent o'rtasida oksyumoron hodisasi ham kuzatiladi. Oksyumoron mazmuniy zid qismlarning semantik yaxlitlanishiga zamin yaratgan.

Bulardan shaxs-son, zamon shakllari frazeologik birliklarning sintaktik shakl yasovchilari vazifasini bajaradi va frazeologizmlarni kesimlik sintaktik pozitsiyasiga xoslaydi. Shuni ta'kidlash zarurki, frazeologik birliklarni tashkil etgan komponentlar qo'shma so'z komponentlariga nisbatan

TILSHUNOSLIK

avtonomligini biroz bo'lsa-da, ularning ichki komponentlari ham o'zgarish xususiyatini saqlab qoladi. Fe'l frazeologizmlar shaxs-son shakliga ko'ra o'zgarish nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'linadi: 1) shaxs-son shakli bo'yicha o'zgaradigan frazeologizmlar; 2) shaxs-son shakli bo'yicha o'zgarmaydigan frazeologizmlar. Masalan, jonlanmoq ma'nosidagi *jon kirdi* frazeologik birligi faqat uchinchi shaxsda qo'llaniladi, demak, shaxs-sonda o'zgarmaydi.

Ba'zi ilmiy manbalarda frazeologik birliklarning ayrimlari mayl, nisbat, shaxs-son shakllarida cheklanganligi ta'kidlanadi. Masalan, *tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, burnidan eshak qurti yog'ilmoq* kabi frazeologik birliklar buyruq maylida kela olmaydi [15, 101-109].

O'zbek tilida fe'l frazeologizmlarning bo'lishli-bo'lishsizlik ko'rsatkichlari bilan o'zgarishi masalasida Sh. Rahmatullaevning qarashlari mavjud [16, 32-36]. Mazkur maqolada "Fe'l frazeologik birliklarning taxminan yarmi har ikki aspektida (ham bo'lishli aspektida, ham bo'lishsiz aspektida) kela oladi, qolgan fe'l frazeologik birliklar esa faqat bir aspektida: yo bo'lishli yoki bo'lishsiz aspektida kela oladi" [16, 32] deyiladi. Olim fe'l frazeologik birliklarni mavjudlik kategoriyasining aspektlariga ko'ra uch guruhga ajratadi. Fe'l frazeologizmlarni bo'lishli-bo'lishsizlik oppozitsiyasiga ko'ra oppozitsiyaga kirishadigan va kirishmaydigan frazeologizmlarga ajratishimiz mumkin. Oppozitsiyaga kirishadigan frazeologizmlar bo'lishsizlik shakliga ko'ra markerlanmagan a'zolarga bo'linadi: *boy berdi – boy bermadi; yon berdi – yon bermadi* kabi.

Ayrim frazeologizmlar bo'lishli-bo'lishsizlik shakliga ko'ra oppozitsiyaga kirishmaydi, faqat bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda qo'llaniladi. Masalan, *dunyoga kelmoq* frazeologizmining bo'lishsiz shakli, *yeru ko'kka ishonmaydi, alifni kaltak deyolmaydi* frazeologik birliklarining bo'lishli shakllari mavjud emas. Bundan tashqari, ayrim frazeologizmlar faqat o'tgan zamon shakli bilan kelganda, zidlanish xususiyatini yo'qotadi, o'tgan zamon shakllari ravishdosh va sifatdosh shakllari bilan distributsiya qilinganda va *hali* leksemi bilan additiv transformatsiyaga uchraganda, bo'lishli va bo'lishsizlik belgisiga ko'ra oppozitsiya tiklanadi.

Bo'lishsizlik shakllari tizimi xuddi fe'llardagi kabi bo'lishsizlik paradigmasini hosil qiladi. Paradigma a'zolari bir umumiy ma'no asosida bir paradigmaga birlashsa ham, lekin ular bir paradigma ichida ma'lum differensial semalar asosida farqlanadi. Frazeologizmlarning bo'lishsiz shakli *–ma* affiksida tashqari *yo'q* va *emas* so'zlari orqali ham ifodalanadi. Keyingi inkor vositalar frazeologik birlikning tayanch komponenti o'tgan zamon sifatdoshi shakli bilan ifodalanganda qo'llanadi. Bunday holda *–gan* ko'rsatkichi *yo'q* va *emas* shakllari bilan zidlanadi. Masalan: *dunyoga keldi – dunyoga kelgan(i) yo'q; emas*.

Bunda *emas* va *yo'q* ko'rsatkichlari fe'l frazeologizmlarga qo'shib, frazeologik birlikni predikativlashtiradi, gapda kesim pozitsiyasiga xoslaydi. Ana shu xususiyati bilan frazeologizmning *–ma* shaklidan farq qiladi. Demak, ayrim frazeologizmlar faqat bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda qo'llanilib, bo'lishli-bo'lishsizlik belgisiga ko'ra oppozitsiyaga kirishish xususiyatini yo'qotadi. Agar frazeologik birlik tarkibidagi bo'lishsizlik shakli olib tashlansa, ya'ni frazeologizm bo'lishsizlik ko'rsatkichini tushirish yo'li bilan transformatsiya qilinganda, frazeologizmlik xususiyatini yo'qotib erkin birikmaga aylanadi. Shu asosda frazeologik birlik tarkibidagi grammatik ko'rsatkichlarni frazeologik muhim va frazeologik nomuhim turlarga ajratish mumkin. Frazeologik muhim bo'lgan ko'rsatkichlar frazeologizmi shakllantiruvchi vosita sanaladi. Shuning uchun bunday vositalarni frazeologik derivatlar sifatida baholash mumkin bo'ladi. Xuddi leksik derivatsiyada derivatlar bir leksemdan boshqa bir leksemi hosil qilish xususiyatiga ega bo'lganidek, frazeologik derivatsiyada ham frazeologik derivat yordamida erkin birikmadan barqaror birikma hosil qilinadi.

Fe'l frazeologizmlar nisbat shakllari bilan ham o'zgarishi mumkin. Masalan, *yosh o'ttira ham osh o'ttira*. Keltirilgan frazeologik birlik tarkibidagi nisbat shakli *–tir* tushirib qoldirilsa, frazeologizm butunligiga putur etadi, frazeologizmlik xususiyatini yo'qotib erkin birikmaga aylanadi. Demak, nisbat shakllari ham xuddi bo'lishsizlik shakllari kabi ba'zi vaqtlarda frazeologik derivat vazifasini bajarishi mumkin bo'ladi. Frazeologik derivat vazifasini bajaruvchi bunday ko'rsatkichlar frazeologik muhim vositalar sanaladi. Shunga ko'ra, frazeologizm tarkibida ishtirok etgan nisbat shakllari ham frazeologizm uchun ikki xil vazifa bajaradi: a) frazeologik muhim va b) frazeologik nomuhim.

Frazeologik nomuhim vazifa bajaruvchi ko'rsatkichlar frazeologizm tarkibidan tushirib qoldirilsa ham, frazeologizm butunligiga putur yetmaydi. Frazeologizm doirasidan chiqarib, erkin birikmaga aylantirmaydi. Masalan, *ko'zi quvonmoq – ko'zini quvontirmoq*.

Distributsiya qoidasiga ko'ra bir pozitsiyada o'zaro paradigmatic munosabatda bo'lgan birliklarning asos qism ma'nosini o'zgartirmagan holda, biri o'rniga ikkinchisining erkin almashinib kelishi bilan farqlanadigan birliklar bir-biriga variant hisoblanadi. Shunday ekan, orttirma nisbat shakllari bilan o'zlik nisbat shakllari o'zaro frazeologik variant shakllarni vujudga keltiradi.

Burgut ko'z, yengil oyoq, yengil tabiat, eshak miya singari frazeologik birliklarda frazeologizatsiya jarayoni grammatik yetakchi bo'lgan qismga tayangan holda va sifatlovchi-sifatlanmish strukturasi negizida ro'y bergan bo'lsa ham, lekin frazeologizmning yaxlit ma'nosi adyektivlashgandir, shuning uchun sifatlarga xos bo'lgan sintaktik vazifani bajaradi. Xususan, sifatlovchi aniqlovchi vazifasida: *yengil oyoq qiz, ikki enlik xat*; ot kesim vazifasida: *u burgut ko'z, birovlar ko'rmagan narsani ko'ra oladi*.

Ayrim adyektiv frazeologizmlar ot+sifat (*avzoi buzuq, zuvalasi pishiq, fe'li buzuq, dimog'i chog'*), fe'+fe'l (*yog' tushsa yalagudek*) strukturasi ega bo'ladi va sifatga xos bo'lgan sintaktik pozitsiyani egallaydi. Ba'zi bir frazeologizmlar adyektiv xarakterga ega bo'lsa ham, lekin daraja ko'rsatkichlari bilan o'zgarish xususiyatiga ega emas: *ikki enlik, yog' tushsa yalagudek* va boshqalar. Bundan ko'rinadiki, frazeologizatsiyalanish dinamik jarayon hisoblanadi.

Ba'zi frazeologik birliklarning tayanch komponenti chiqish, o'rin-payt, ba'zan jo'nalish va chegara kelishliklarida kelsa ham, bu kelishliklar frazeologizm tarkibida yaxlitlanib, sintaktik munosabat ifoda etish funksiyasini yo'qotgan bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar xuddi leksemalar kabi shakl va mazmun munosabatidan tashkil topib, har ikki tomon o'z ichki tuzilishiga ega bo'ladi. Mazmuniy tuzilishi denotativ, konnotativ, pragmatik semalar bilan birgalikda, turkumlik semasini ham o'z ichiga oladi. Turkumlik semasi frazeologizmlarning ma'lum turkumga mansubligiga ishora qiladi va frazeologizmlar o'zi mansub bo'lgan turkumning sintaktik munosabat shakliga ega bo'ladi va shu turkumga xos sintaktik pozitsiyani egallaydi.

Frazeologizm tarkibidagi grammatik shakllar frazeologizm strukturasi kirishi ham, kirmasligi ham mumkin. Frazeologizm strukturasi kiradigan shakllar frazeologik relevant, frazeologizm strukturasi kirmaydigan shakllar esa frazeologik irrelevant shakllar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: Муҳаррир, 2013.
2. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1976.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
4. Рафиев А. Ўзбек тили фразеологик birlikларининг структурал-функционал хусусиятлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1982.
5. Маматов А.Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991.
6. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.
7. Ҳакимов Қ.М. Ўзбек тилидаги содда гап қолиплари фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994.
8. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет, 1992.
10. Усманова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998.
11. Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006.
12. Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2001.
13. Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
14. Вафоева М.И. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.
15. Тихонов А.Н., Ходжаев Т.Х. О грамматической природе глагольных фразеологизмов в узбекском языке // Вопросы фразеологии и грамматического строя языков. Ташкент: Фан, 1967.
16. Раҳматуллаев Ш. Феъл фразеологик birlikларда мавжудлик категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти. -1963. 4-сон.- Б.32-36.